

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 276-sahifa.
2026-yil, iyul.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

KOZIMJONOV ABROREBEK

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16

KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.....24

RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'larini tejash yo'llari.....30

ISMAYLOV SIROJIDDIN ISOQOVICH

O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....42

TURGUNOV ABDULLOH QUDRATBEK O'G'LI

Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.....49

ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH

Efficiency indicators of financial management mechanisms in joint-stock companies.....55

ZOHIDOV JAMSHID BOTIRXONOVICH

Xizmat ko'rsatish korxona menejmentida axborot texnologiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....63

ACHILOVA FIRUZA KURBANOVNA, PARDAYEV ORIFJON

CHARSHAMIYEVICH
Qashqadaryo viloyatida raqamli infratuzilma va sanoat ishlab chiqarishning hozirgi holati tahlili.....71

UMAROVA ROXILAXON XALILJON QIZI

Mahalla tizimida madaniy loyihalarni boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....80

ATABAYEVA KAROMAT RAJABOVNA

Demografik jarayonlarni o'rganishning nazariy asoslari.....88

URALOV FARRUH ABDURAZZOQOVICH

Hududiy klaster siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.....95

G'IYOSOV ILXOM KARIMOVICH

Korporativ boshqaruv mexanizmlarining qurilish korxonalarida strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri.....109

ANVAROVA LOBARXON SHERZOD QIZI

Sun'iy intellekt asosida strategik va operatsion boshqaruvni optimallashtirish mexanizmlari.....119





SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH

Valyuta kursi barqarorligini ta'minlashda monetar siyosat vositalarining roli va uning mehnat bozori dinamikasiga ta'siri.....131

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishning nazariy asoslarini takomillashtirish.....140

ERKAYEV AKROM NORMUXAMMADOVICH

Milliy iqtisodiyotni sanoatlashuvning nazariy evolyutsiyasi.....150

AXMEDOVA NILUFAR SHUHRATOVNA, RISBEKOVA DILFUZAXON

JALOLIDIN QIZI

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda hududiy jihatlar hamda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari.....163

SHARIPOV G'ULOMJON QARSHI O'G'LI

Yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruvning xorijiy tajribasi va O'zbekistonda qo'llash istiqbollari.....169

SAPAROV ILYOS XUDAYMURATOVICH

Jamoatchilik ishonchi va ijro mas'uliyati: «Tashabbusli byudjet»ning yangi bosqichdagi vazifalari.....179

MURTOZAYEVA DILNOZA BOBONIYOZ QIZI

O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat bozori marketing tadqiqotlarini o'tkazishda raqamlashtirish jarayonining afzalliklari.....184

ТАДЖИЕВА САЙЁРАХОН УРАЛОВНА

Маркетинговая привлекательность Бухарской области и факторы её формирования.....193

G'OFUROV BEKZOD FAYZULLA O'G'LI

Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari.....208

USMONOVA MOHIGUL MANSUR QIZI

Yashil iqtisodiyot va ayollar tadbirkorligi rivojlanishining nazariy-konseptual asoslari.....214

ESHQULOVA NASIBA NORMO'MINOVNA

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari.....223

KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH

Mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda samaradorlikni baholashning nazariy-uslubiy yondashuvlari.....234

TADJIYEVA SAYYORAXON URALOVNA

Hudud marketing kapitalining nazariy asoslari va konseptual modeli.....240

SHAMSIKULOVA MOXINA BONU FURKATOVNA

Tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning xorij tajribasi.....254

HAMIDOV RUSHAN ERKINOVICH

Oliy ta'limda iqtisodiy fanlarni o'qitish orqali talabalarning moliyaviy madaniyatini yuksaltirish.....261





SADIKOVA MUSLIMA ALISHER KIZI

Implementation of international standards in the corporate governance system of joint-stock companies of Uzbekistan.....270

XAMDAMOV SARDOR FARMON O'G'LI

Davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi: tushunchasi, tarkibiy elementlari va amal qilish tamoyillari.....276





DAVLAT XARIDLARINING MOLIYAVIY MEXANIZMI: TUSHUNCHASI, TARKIBIY ELEMENTLARI VA AMAL QILISH TAMOYILLARI

XAMDAMOV SARDOR FARMON O'G'LI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi, i.f.f.d. (PhD)

E-mail: sardorxamdakov@gmail.com

ORCID: 0009-0001-5072-7342

Annotatsiya. Maqolada «moliyaviy mexanizm» kategoriyasining moliya nazariyasidagi talqinlari tanqidiy tahlil qilinib, uning davlat xaridlari sohasiga tatbiqi asoslangan. «Davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi» tushunchasiga mualliflik ta'rifi taklif etilgan hamda mexanizmning tarkibiy elementlari — moliyaviy rejalashtirish, narx shakllantirish, to'lov-hisob, moliyaviy nazorat va rag'batlantirish bloklari yaxlit tizim sifatida tizimlashtirilgan. Mexanizmning amal qilish tamoyillari va elementlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ochib berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy mexanizm, davlat xaridlari, moliyaviy rejalashtirish, boshlang'ich narx, to'lov-hisob munosabatlari, moliyaviy nazorat, rag'batlantirish, g'aznachilik.

Аннотация. В статье критически анализируются интерпретации категории «финансовый механизм» в финансовой теории и рассматривается её применение в сфере государственных закупок. Предлагается авторское определение понятия «финансовый механизм государственных закупок», а структурные элементы механизма – финансовое планирование, ценообразование, платежно-расчётные отношения, финансовый контроль и стимулирующие блоки – систематизированы как единая система. Раскрываются принципы функционирования механизма и взаимосвязь между его элементами.

Ключевые слова: финансовый механизм, государственные закупки, финансовое планирование, начальная цена, платежно-расчётные отношения, финансовый контроль, стимулы, казначейство.

Abstract. The article critically analyzes interpretations of the category "financial mechanism" in finance theory and substantiates its application to public procurement. The author's definition of the "financial mechanism of public procurement" is proposed, and its structural elements — financial planning, pricing, settlement and payment, financial control and incentive blocks — are systematized as an integrated system. The principles of the mechanism's functioning and the interrelations between its elements are revealed.

Keywords: financial mechanism, public procurement, financial planning, initial price, settlement and payment relations, financial control, incentives, treasury.

KIRISH

Davlat xaridlari samaradorligi ko'p jihatdan xarid tartib-taomillarining huquqiy mukammalligi bilan emas, balki ular zamiridagi moliyaviy munosabatlarning qay darajada oqilona tashkil etilgani bilan belgilanadi. Boshlang'ich narxning asoslanganligi, to'lovlarning o'z vaqtidaligi, shartnoma ijrosining moliyaviy ta'minoti, nazorat va rag'batlantirish vositalarining ishlashi — bularning barchasi yaxlit tizimni, ya'ni davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmini tashkil etadi. Biroq iqtisodiy adabiyotda «moliyaviy mexanizm» kategoriyasi ko'p hollarda umumnazariy darajada qolib, davlat xaridlari sohasiga nisbatan yaxlit tadqiq etilmagan. Ushbu maqolaning maqsadi — «davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi» tushunchasini ilmiy asoslash, uning tarkibiy elementlari va amal qilish tamoyillarini tizimlashtirishdan iborat.





MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

“Moliyaviy mexanizm” kategoriyasi moliya nazariyasida keng talqin etiladi. V.M. Rodionova moliyaviy mexanizmni jamiyatda moliyaviy munosabatlarni tashkil etishning shakllari, usullari va vositalari majmui sifatida ta’riflaydi [3]. A.M.Kovaleva tahriridagi darslikda moliyaviy mexanizm tarkibida moliyaviy usullar, moliyaviy richaglar hamda huquqiy, me’yoriy va axborot ta’minoti ajratib ko’rsatiladi [4]. I.T.Balabanov moliyaviy mexanizmni moliyaviy resurslarni boshqarishning usul va vositalari tizimi sifatida qaraydi [5]. O’zbekistonlik olimlar A.V.Vahobov va T.S.Malikovlarning ishlarida moliyaviy mexanizm davlat moliyaviy siyosatini ro’yobga chiqarish vositasi sifatida talqin etilgan [6; 7].

Davlat xaridlari sohasida moliyaviy munosabatlarning ayrim jihatlari J.-J. Laffon va J. Tirol (shartnomalarni rag’batlantiruvchi loyihalash) [8], N. Dimitri, G. Piga, J. Spanyolo (xarid jarayonining iqtisodiyoti) [9], I.I. Smotriskaya (xaridlarning kontrakt tizimi) [10] ishlarida yoritilgan. Jahon bankining tadqiqotlari xarid tizimlarining moliyaviy shaffofligini baholash metodologiyasini taklif etadi [11]. Shu bilan birga, tahlil ko’rsatadiki, “davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi” tushunchasi mustaqil ilmiy kategoriya sifatida ishlab chiqilmagan: mavjud ishlarda yo umumiy moliyaviy mexanizm nazariyasi, yo xaridlarning protsedura jihatlari ustuvor o’rganiladi. Mazkur bo’shliq ushbu tadqiqotning predmetini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, tizimli yondashuv, tarkibiy-funksional tahlil, qiyosiy tahlil va nazariy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Kategorial apparatni ishlab chiqishda moliya nazariyasining fundamental qoidalari hamda O’zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to’g’risida”gi Qonuni (O’RQ-684-son) [1] va unga muvofiq qabul qilingan me’yoriy hujjatlar [2] asos qilib olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliya nazariyasidagi yondashuvlarni umumlashtirib, moliyaviy mexanizmning uch belgisini ajratish mumkin: u moliyaviy munosabatlarni tashkil etish shakli; maqsadga yo’naltirilgan boshqaruv vositalari tizimi; va moliyaviy siyosatni ro’yobga chiqarish instrumenti. Ushbu belgilarni davlat xaridlari sohasiga ko’chirsak, xaridlarning moliyaviy mexanizmi byudjet mablag’larining xarid jarayonidagi to’liq harakat siklini — rejalashtirishdan yakuniy to’lov va nazoratgacha — qamrab olishi lozim.

Shu asosda quyidagi mualliflik ta’rifini taklif etamiz: davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi — bu davlat ehtiyojlari uchun tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish jarayonida byudjet va unga tenglashtirilgan mablag’larning samarali shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishini ta’minlashga qaratilgan moliyaviy usullar, vositalar, richaglar hamda ularning huquqiy, me’yoriy va axborot ta’minotining o’zaro bog’liq tizimidir. Mexanizmning tarkibiy elementlarini besh blokka birlashtirish maqsadga muvofiq (1-jadval).

Bloklar o’rtasidagi bog’liqlik tizimli xarakterga ega: rejalashtirish blokidagi xatolar (asossiz ehtiyoj, noreal smeta) narx blokida boshlang’ich narxning





buzilishiga, u esa to'lov blokida byudjet ortiqcha xarajatlariga olib keladi; nazorat bloki esa butun sikl bo'ylab teskari aloqani ta'minlaydi. Demak, mexanizm samaradorligini alohida blok emas, balki bloklararo muvofiqlik belgilaydi — bu holat samaradorlikni baholashda integral yondashuvni taqozo etadi.

1-jadval

Davlat xaridlari moliyaviy mexanizmining tarkibiy bloklari

Blok	Mazmuni	Asosiy vositalari
1. Moliyaviy rejalashtirish	Xarid ehtiyojlarini byudjet parametrlari bilan muvofiqlashtirish	Xarid rejalari, byudjet smetalari, xarajatlar limitlari
2. Narx shakllantirish	Boshlang'ich (startovnyy) narxni asoslash va raqobatli narx pasayishini ta'minlash	Bozor tahlili, narx monitoringi, auksion/tender mexanizmlari
3. To'lov-hisob	Shartnoma bo'yicha moliyaviy majburiyatlarning ijrosi	Avans to'lovlari, g'aznachilik to'lovlari, shartnoma ijrosi ta'minoti (zakalat, bank kafolati)
4. Moliyaviy nazorat	Mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash	G'aznachilik nazorati, ichki audit, monitoring, audit tekshiruvlari
5. Rag'batlantirish	Ustuvor maqsadlarga erishishni qo'llab-quvvatlash	Mahalliy ishlab chiqaruvchilar va kichik biznes uchun preferensiyalar, "yashil" xarid mezonlari

Manba: muallif ishlanmasi.


Mexanizmning amal qilish tamoyillari sifatida quyidagilarni ajratamiz: qonuniylik va shaffoflik (barcha moliyaviy operatsiyalarning ochiq axborot tizimida aks etishi); raqobatlilik (narx shakllanishining raqobat asosida kechishi); samaradorlik va tejamkorlik (xarajat birligiga maksimal natija); mutanosiblik (ta'minot talablari bilan yetkazib beruvchilar imkoniyatlari o'rtasidagi balans); va risklarni taqsimlash (buyurtmachi va ijrochi o'rtasida moliyaviy risklarning oqilona taqsimlanishi). Sanoat korxonalari kesimida ushbu tamoyillarning ro'yobga chiqishi o'ziga xos xususiyatlarga ega: yirik shartnoma summolari, uzoq ishlab chiqarish sikli, avans to'lovlariga yuqori ehtiyoj va texnik murakkab mahsulot sifatini baholash zarurati mexanizm elementlariga qo'shimcha talablar qo'yadi.

1-rasmda davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi va uning asosiy tarkibiy elementlari tizimli ravishda aks ettirilgan. Rasmga ko'ra, moliyaviy mexanizm beshta o'zaro bog'liq bosqichdan iborat bo'lib, ular budjetni rejalashtirish, xaridlarni tashkil etish, moliyalashtirish manbalarini shakllantirish, to'lov va hisob-kitoblarni amalga oshirish hamda moliyaviy nazorat va auditni o'z ichiga oladi.

Jarayonning birinchi bosqichi – budjetni rejalashtirish bo'lib, unda davlat ehtiyojlari aniqlanadi va ularni moliyalashtirish uchun zarur mablag'lar rejalashtiriladi. Ikkinchi bosqichda xaridlar amaldagi qonunchilik asosida tashkil etilib, tanlov (tender) jarayonlari orqali yetkazib beruvchilar aniqlanadi. Uchinchi bosqichda budjet mablag'lari, maqsadli jamg'armalar hamda boshqa qonuniy



moliyalashtirish manbalari hisobidan xaridlarni moliyalashtirish amalga oshiriladi. To'rtinchi bosqichda tuzilgan shartnomalarga muvofiq to'lovlar bajariladi va moliyaviy hisob-kitoblar yuritiladi. Yakuniy bosqichda esa davlat mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishi ustidan moliyaviy nazorat hamda audit o'tkaziladi.



Manba: muallif ishlanmasi.

1-rasm. Davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi

Rasmda barcha bosqichlarning elektron davlat xaridlari tizimi orqali yagona platformaga integratsiyalashgani alohida ko'rsatilgan. Ushbu tizim xarid jarayonlarini raqamlashtirish, ma'lumotlar almashinuvini tezlashtirish, inson omili ta'sirini kamaytirish hamda real vaqt rejimida monitoringni amalga oshirish imkonini beradi. Natijada xaridlar jarayonining shaffofligi va boshqaruv samaradorligi oshadi.

Shuningdek, rasmning quyi qismida davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi amal qiladigan asosiy tamoyillar – shaffoflik, raqobat, tejankorlik, samaradorlik va hisobdorlik ifodalangan. Ushbu tamoyillarga rioya etilishi budjet mablag'laridan oqilona foydalanishni ta'minlaydi, korrupsiya xavfini kamaytiradi, sog'lom raqobat muhitini rivojlantiradi hamda davlat xaridlarining iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, 1-rasm davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi yagona va uzviy bog'langan boshqaruv tizimi ekanligini ko'rsatadi. Unda har bir bosqichning samarali tashkil etilishi keyingi bosqichning natijadorligiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois davlat xaridlarini yanada takomillashtirishda elektron xarid tizimlarini rivojlantirish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish va raqamli boshqaruv texnologiyalarini keng joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Birinchidan, “davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi” mustaqil ilmiy kategoriya sifatida asoslandi va unga mualliflik ta’rifi taklif etildi; mazkur ta’rif mexanizmni protseduralar yig’indisi emas, byudjet mablag’lari harakatining yaxlit boshqaruv tizimi sifatida talqin etadi.

Ikkinchidan, mexanizmning besh tarkibiy bloki (moliyaviy rejalashtirish, narx shakllantirish, to’lov-hisob, moliyaviy nazorat, rag’batlantirish) va ularning vositalari tizimlashtirildi; bloklararo bog’liqlikning buzilishi byudjet yo’qotishlarining asosiy manbai ekani ko’rsatildi.

Uchinchidan, mexanizmning amal qilish tamoyillari shakllantirildi hamda sanoat korxonalarida ularning namoyon bo’lish xususiyatlari aniqlandi. Keyingi tadqiqotlarda mazkur nazariy konstruksiya asosida mexanizm samaradorligini baholashning ko’rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va uni sanoat korxonalarining empirik ma’lumotlarida sinab ko’rish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to’g’risida”gi Qonuni (yangi tahriri). 2021-yil 22-aprel, O’RQ-684-son // lex.uz.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo’yicha navbatdagi chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni. 2025-yil 26-dekabr, PF-259-son // lex.uz.
3. Родионова В.М. (ред.) Финансы. – М.: Финансы и статистика, 1995. – 432 с.
4. Ковалева А.М. (ред.) Финансы. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2005.
5. Балабанов И.Т. Основы финансового менеджмента. – М.: Финансы и статистика, 2001.
6. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – Toshkent: “Noshir”, 2012.
7. Malikov T.S. Moliya. Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2019.
8. Laffont J.-J., Tirole J. A Theory of Incentives in Procurement and Regulation. – Cambridge, MA: MIT Press, 1993. – 705 p.
9. Dimitri N., Piga G., Spagnolo G. (eds.). Handbook of Procurement. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 562 p.
10. Смотровская И.И. Экономика государственных закупок. – М.: ЛИБРОКОМ, 2009. – 232 с.
11. World Bank. Benchmarking Public Procurement 2017: Assessing Public Procurement Regulatory Systems in 180 Economies. – Washington, DC: World Bank, 2016.
12. OECD. Government at a Glance 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**